

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDA SOLIQLARNING ROLI

M.J.Bauyedtinov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Moliya” kafedrasi dotsenti, i.f.b.f.d. (Phd)

Tuxsanov Eldor Dilmurod o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Magistratura 2-bosqich MGF-01 guruh talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada davlat budgeti daromadlari shakllanishida soliqlarning roli , ularning bugungi holati tahlili, YaIMdagagi ulushining o’sih progressiyasi tahlili ko’rib chiqiligan va bu borada kerakli taklif va xulosalar berilgan. Shuningdek Yangi O’zbekiston traqqiyot strategiyasida soliqlarning istiqboldagi holati haqida so’z borgan.

Kalit so’zlar: Davlat budgeti, moliya tizmi, soliqlar, daromadlar, soliqli daromadlar, to’g’ri soliqlar, egri soliqlar, YaIM ulushi, Taraqqiyot strategiyasi.

Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquqiy demokratik davlatni qurish belgilab olingan ekan, fuqarolik jamiyati bu bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy budgetga, jamoat tuzimlariga va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlariga bosichma-bosqich topshirishni ko’zda tutadi. Alovida ta’kidlash joizki, so’nggi vaqtida aholi davlat budgetining biri qismi taqsimotida faol ishtirok eta boshlagan. Ya’ni “Tashabbusli budget” loyihasi doirasida odamlar talab qilgan yo‘nalishlarga budgetdan mablag’lar ajratilmoqda. Bunda bevosita aholi ishtirokida qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish amaliyoti joriy etildi. Mazkur amaliyot orqali aholiga o’zini qiynatotgan muammolar, shu jumladan, mahalladagi kamchiliklar uchun pul ajratishni (yo’llar, ijtmioiy obyektlar) budgetga kiritish va ularni tezlik bilan hal qilish imkoniy yaratildi. Bu esa o’z navbatida mahalliy byudjetlar moliyaviy resurslarini asosiy manbai bo’lgan mahalliy soliqlar va yig’imlar ahamiyatini oshib borishini bildiradi.

Davlatimiz xazinasini moliyaviy resurslar bilan to’ldiruvchi asosiy manba soliq bo’lgani sababli, u jamiyatimiz oldida turgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy va boshqa ko’pgina vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan miqdordagi pul mablag’i bilan ta’milanishi lozim. Soliqlar davlat budgetini to’ldiruvchi asosiy elementlardan biri bo’lib hisoblanadi. Shuning uchun soliqlarga davlat budgetining daromad qismini shakllantiruvchi, eng muhim bo’lgan umum davlat vazifalarini hal etish uchun zarur miqdordagi mablag’ni jamlantiruvchi dastak sifatida qarash lozimdir.

Soliq siyosatiga qat’iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hajmi, yirik investitsiya loyihalari va mamlakat

mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirish – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi.¹

Davlat budgetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni budgetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin. Eng avvalo, Davlat budgetining daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- soliqli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Soliqlar o'zining iqtisodiy mohiyati, budgetga kelib tushishi xususiyati, soliq to'lovchilarning xususiyatlari bo'yicha tavsiflanadi. Masalan, iqtisodiy mohiyati bo'yicha egri va to'g'ri soliqlarni turkumlashimiz mumkin. Bizga ma'lumki, soliqlarning asosiy manbai yangidan yaratilgan qiymat va birlamchi taqsimlash jarayonida hosil bo'ladigan daromadlar ya'ni: foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, ssuda foizi, renta va dividentlar hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilganlarga asoslangan holda amaldagi soliq tizmida bir qator soliqlar amal qiladi.²

Soliq Kodeksining 23-moddasida e'tirof etilganidek, O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlarni va majburiy to'lovlarni quyidagi guruhlarga ajratib o'rganish mumkin.³

Soliqlar soliq solish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. *Oborotdan olinadigan soliqlar.*
2. *Daromaddan olinadigan soliqlar.*
3. *Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.*
4. *Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.*

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgarigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki yuklab yuborilgan mahsulotlar qiymati bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliq kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" mavzusidagi ma'ruzasi. Toshkent 2017

² M.J.Bauyedtinov va boshqalar Davlat budgeti, o'quv qo'llanma Toshkent-2021

³ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2019

Mol-mulk kiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

Respublikamizda shakllantirilgan soliq tizmi jahon amaliyotida umumiy qabul qilingan tizmilar bilan umimiy uyg'unlashgan holda shakllantirilgan. Shuningdek, milliy soliq tizmimiz xalqimizning yillar uzoq yillar mobaynida shakllangan milliy an'analari, milliy mentalitetimiz bilan sug'orilgan.

O'zbekistonda soliq tizmi tuzilmasi⁴

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar
<p>1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;</p> <p>2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;</p> <p>3) qo'shilgan qiymat solig'i;</p> <p>4) aktsiz solig'i;</p> <p>5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;</p> <p>6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;</p> <p>7) yagona soliq to'lovi;</p> <p>8) tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.</p>	<p>1) mol-mulk solig'i;</p> <p>2) yer solig'i;</p> <p>3) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;</p>

Soliq tizimining muammolari va ularni hal qilishning mumkin bo'lgan istiqbollarini taqdim etishdan oldin, uni rivojlantirishning amaldagi sharoitlarini ko'rib chiqamiz. 2022 yil yakunlari bo'yicha Konsolidatsiyalashgan byudjet (Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari) daromadlari 254.6 trln so'mni (YaIMga nisbatan 28.7%) tashkil etdi. 1-jadvaldan ko'rindan, YaIMga nisbatan Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari ulushi dinamikada deyarli o'zgarmagan va aksincha o'sish tendensiyasiga ega. Buni ayniqsa 2022 yil uchun daromadlar prognozi tasdiqlaydi - daromadlarning YaIMga nisbati 29.1% darajasida prognoz qilinmoqda.

⁴ Soliq kodeksi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

I-Jadval 2018-2023 yillarda YaIMga nisbatan budjet daromadlari⁵ (mlrd so'm)

	2018 y.		2019 y.		2020 y.		2021 y.		2022 y.		2023 y. prognoz	
	summa	YaIM ga nisba tan % da	summa	YaIM ga nisba tan % da	summa	YaIM ga nisba tan % da	summa	YaIM ga nisba tan % da	summa	YaIM ga nisba tan % da	summa	YaIM ga nisba tan % da
YaIM	406648		529391		602551		734588		888341		1068044	
Konsolidatsiya lashgan budjet daromadlari	1070 35	26,3	1370 57	25,9	1562 49	25,6	1964 05	26,7	2545 82	28,7	3106 77	29,1
Davlat budjeti daromadlari	7909 9	195	1216 5	21,2	1329 38	22,1	1646 81	22,4	2018 63	22,7	2321 07	21,7

Byudjetga daromadlar tushumining oshishi/kamayishiga umuman quyidagi omillar ta'sir etadi:

- respublika iqtisodiyotining o'sishi;
- so'mning erkin ayirboshlash kursini joriy qilish;
- qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxlarining nisbatan yuqoriligi;
- pandemiya vaqtida karantin choralarining joriy etilishi va yengillashtirilishi;
- soliq islohoti;
- soliq ma'muriyatichiligining yangi instrumentlarini joriy etish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab shiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yisha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barsha hokimiyat organlari, jumladan, qonun shiqaruvshi, ijro etuvshi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko'rsatadi va unda Davlat soliq qo'mitasi soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi.

Shu o'rinda aytish joizli mamlakatimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari natijasida soliq yuki yildan yilga kamayib bormoqda. Xususan 2022-yilning 28-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni⁶ qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022-yil 1-apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million

⁵ Openbudget.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

⁶ 2022 — 2026-YILLARGA MO' LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlari daromad solig‘idan ozod etildi. Yana bir muhim jihatni, 2023-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 %gacha hamda bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo‘nalishlarida foyda solig‘i stavkasi 15 %gacha tushirishrildi. Bundan tashqari, 2026-yil borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 %idan 25 %i darajasiga kamaytirish kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: “Adolat”, 2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2013-yil., 52-I-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining ma’ruzasidan.Xalq so’zi 2017-yil.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2023-йилги Давлат бюджети тўғрисида ЎРҚ-813
5. www.Openbudget.uz
6. www.lex.uz
7. www.stat.uz
8. www.soliq.uz